

QORAQALPOQ YOSHLARINING MILLIY IDENTIKLIGINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

TURSINBAEVA UMIDA SALAMAT QIZI

Ózbekistan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialı

“Ulıwma kásiplik hám social gumanitar pánler”

“muzıkatanıw” qániygeligi 1-kurs studenti

Tel: 998991130145

Millatning identikligi avvalambor davlat va xalq manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq «o‘zlikni anglash» tuyg‘usi asosida shakllanadi. Chunki o‘zlikni anglash orqali nafaqat milliy, etnik manfaatlarni, balki shu bilan birga, milliy jipslilikni vujudga keltiruvchi mental xususiyatlarni ham maqsadga yo‘naltirish mumkin. Milliy identiklikning yana bir xususiyati – u millat xarakteri va mentalitetining ijtimoiy269 ma’naviy jihatlarini anglashning asosi ham hisoblanadi. O‘zlikni anglash milliy identiklikning bir qismi hisoblanadi. Lekin ko‘plab tadqiqot ishlarida o‘zlikni anglash omili uzoq vaqtlargacha identiklik tushunchasiga qorishtirib yuborilardi. Aslini olganda milliy identiklik o‘zida mentalitet va o‘zlikni anglash tushunchalarini mujassam etadi va millatning xarakterli xususiyatlarini belgilashda ularni bir-biridan ayri ko‘rish mumkin emas.

Identiklik – bu shaxsning mavjud sotsiumda turli madaniy xususiyatlarni o‘zida jamlaganligi va shuning asnosida o‘zining ma’lum sotsial birlikka tegishli ekanligini anglash, his etishidir [2. 69]. Ammo bugungi kunda globallashuv tufayli dunyoda shakllanayotgan yangi qadriyatlar bilan insoniyat orttirgan hayotiy tajriba o‘rtasidagi uzviylikning muayyan darajada buzilishi, turli xil tahdidlarning hozirgi holati jarayonida o‘zgarayotgan identiklik maxsus tadqiq etish zaruratini taqozo etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llabquvvatlash »ni [1] rag‘batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi. Shu bois ham milliy identiklik

tizimining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy tuzilmalar evolyutsiyasini tizimli tadqiq etish, identiklik fenomeni va uning ijtimoiy xususiyatlari dinamikasi prognozini amalga oshirish alohida dolzarblik kasb etadi. Identiklik atamasi ingliz tilidan (identity) olingan bo'lib – «aynanlik», «mansublik» ma'nolarida qo'llaniladi [3. 41-42]. Identiklik kichik sotsial guruhlar, sinflar, xududiy birliklar, etnik va milliy guruhlar, xalqlar, sotsial harakatlar, shuningdek, davlat va global miqyosda butun bir insoniyat bilan bog'liq tushunchadir. Bunda inson sotsial munosabatlar tizimidagi madaniy subekt sifatida o'zini idrok etadi, his etadi va baholaydi. Sotsiumda inson bir paytning o'zida o'zini bir necha sotsiomadaniy birlik va guruhlar bilan indentifikatsiyalashi mumkin [4. 15].

Talabalarda milliy identiklik xususiyatlarini shakllantirishning zaruriyatini quyidagilar bilan belgilash mumkin: Birinchidan, har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlari o'z tabiati bilan yaratilgan. Demak, har birining o'ziga xos ma'naviy olami mavjud. Bu ma'naviy olam esa ma'naviy-ruhiy qiyofa tarzida namoyon bo'ladi. Ular doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi. Shu ma'noda bugungi yoshlarimizning ma'naviy-ruhiy qiyofasidagi o'zgarishlar mohiyatini anglash, bizga islohatlar davrida bir qancha mavhum bo'lgan muammolar yechimini anglash imkonini beradi. Ikkinchidan, har bir xalqning indentiklik xususiyatlariga mos tarzda madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi, diniy e'tiqodga nisbatan munosabati va shu bilan bog'liq harakatlari, kayfiyatlari, hozirgi davrda esa siyosiy jarayonlarga munosabatlari ham shakllanadi. Shu ma'noda, xalqimiz milliy xarakterdagi barcha o'zgarishlar, hozirgi zamon bilan hamnafas bo'lishi, shu bilan birga jahondagi globallashuv jarayonlarini ham hisobga olishi lozim. zero, globallashuv millatlarning ma'naviy-ruhiy qiyofalariga salbiy ta'sir etmoqda. Lekin bu milliy ma'naviyat tevaragida to'siqlash tiklash bilan amalga oshirilmasligi kerak. Buning uchun xalqimizning o'zini o'zi himoya qilishga qaratilgan milliy-ruhiy salohiyatini shakllantirish zarurdir. Buning uchun bugungi yoshlarimiz, xususan milliy identiklik xususiyatlarini takomillashtirishning strukturasi va funktsiyalarini chuqur tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Uchinchidan, talaba yoshlarning milliy indentiklik, ma'naviy-ruhiy qiyofasini

yangilash borasida juda katta ishlar qilinayotgan hozirgi kunda birqancha muammolar ham borligini e'tiborga olish lozim. Zero, aholining ko'p millatli ekanligi va har bir millat vakillari identikligining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik an'analari hanuzgacha rivojlanishga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotganligi va boshqalar bilan hisoblashish zarurligini unutmasligimiz zarur.

To'rtinchidan, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Beshinchidan, taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson omili jamiyatni harakatga keltiruvchi qudratli kuchga aylandi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni samarali amalga oshirishda uzluksiz ta'limning yangi qirralari shakllanadi va mazmunan takomillashib bormoqda. Uning asosiy maqsadi individ, jamiyatni intellektual rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning ta'sirida shakllanadigan shaxsda ijtimoiy-siyosiy faoliyat, jamiyat yangilanishida faol ishtirok etish qobiliyati va madaniyatini tarkib toptirish nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq yoshlari hayotida milliy madaniyat, an'analar, urf-odatlar, marosimlar, qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat turmush tarzi, balki insonning o'z faoliyati davomida kirishishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tabiatga ega munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Shu sababli avloddan avlodga meros qoldiriladigan ma'naviy va moddiy qadriyatlar chuqur o'rganilishi va orttirib borilishiga, takomillashuviga alohida e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 28-12-2018. <https://president.uz/uz/lists/view/228>
2. Борневассер М. Социальная структура, идентификация и социальный контакт // Иностранная психология. -1993. –Т.1. -№1. –С.69.
3. Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси. –Тошкент: NOSHIR, 2015. – Б.41-42.
4. Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность. –М.: МОРУ, 2001. –С.15.мм
5. U.Tusinbaeva G.Kamalova MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA MUSIQAVIY TARBIYA BERISHDA MUSIQA RAHBARINING O'RNI
6. Dauletbaev T. Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN'ATINING RIVOJIDA G 'AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 90-94.
7. U.Tusinbaeva G.Kamalova XALÍQ MUZÍKA DÓRETPELERIN HÁM SALT DÁSTÚRLERDI ÚYRENIW ARQALÍ JASLARDI RUWXIY ESTETIKAĞA TÁRBIYALAW
8. U.Tusinbaeva G.Kamalova MEKTEP OQÍWSHÍLARÍNDÁ MUZÍKA TÁLIMI ARQALÍ ESTETIKALÍQ TÁRBIYA MÁDENIYATÍN QÁLIPILESTIRIW
9. U.Tusinbaeva G.Kamalova JÁHÁN OPERA KÓRKEM ÓNERINDE JUZEPPE VERDI DÓRETIWSHILIGINÍ ORNI RIGALETTO OPERASINÍN KÓRINISLERINDEGI ARIYALADÍN QISQASHA TÚSINIGI .
10. U.Tusinbaeva G.Kamalova OYANÍW DÁWIRI MUZÍKA KÓRKEM ÓNERI
11. U.Tusinbaeva MIRZA ULUG'BEKTIŇ JÁHÁN ILIMINE QOSQAN
12. U.Tusinbaeva ÁJINIYAZ QOSÍQLARÍNÍN KÓRKEM ÓNERDEGI ÁHMIYETI
13. U.Tusinbaeva G.Kamalova MUZÍKA OQÍW ORÍNLARÍNDÁ MUZÍKA ÁDEBIYATÍ PÁNIN OQÍTÍW USÍLLARÍ HÁM WAZIYPALARÍ